


Termiz shahrida 10 ta oilaga uy-joylar topshirildi

Image not found or type unknown



Termiz shahrida 10 ta oilaga uy-joylar topshirildi

Bugun Termiz shahri "Manguzar" mahallasi hududida tadbirkor Bexzod Yuldoshev tomonidan ehtiyojmand, kam ta'minlangan oilalar uchun qurilgan 10 ta ijtimoiy uy-

joylar o'z egalariga topshirildi. Viloyatning shahar va tumanlaridan tanlab olingan, uy-joyga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarga topshirilgan mazkur uy-joylar barcha qulayliklarga ega.

Uy-joylarni tantanali topshirish marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva, viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, viloyat faollari, nuroniylar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda yangi xonadon egalariga viloyat hokimligi tomonidan maishiy texnikalar va sovg'alar ham topshirildi.

Image not found or type unknown

Xayriyat saxovat va muruvvat oyi bo'lgan Muborak Ramazon oyi davrida bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishi yurtimizda "Inson qadri" ulug'lanishining yana bir ifodasidir.






Image not found or type unknown








Image not found or type unknown

